IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

# OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQ, ULARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI



| | |
|---|---|
| Muallif | **Umirova Mamlakat Imomovna** |
| O’qish yoki ish joyi | **International School Of Finance Technology And Science Instituti o‘qituvchisi** |
| Qabul qilindi | **11.09.2023** |
| Nashr qilindi | **12.09.2023** |



**Annotatsiya**

Mazkur maqolada nutqiy kompetent va uni takomillashtirishning samarali usullari haqida fikr yuritilgan. Nutqiy madaniyatni kamol toptirishda, ayniqsa, badiiy adabiyotning ahamiyati beqiyosligi, adabiyot darslarida o‘quvchi nutqiy kompetentlarini o‘stirish maqsadida o‘tkaziladigan turli topshiriqlar haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar**

Kompetensiya, nutq madaniyati, psixolingvistik yondashuv, lingvodidaktik yondashuv, adabiy-metodik yondashuv, nutqiy kompetent, nutq shakllari.

Ona tili va adabiyot darslari o‘quvchilarning nutqiy kompetentlarini o‘stirishda boy imkoniyatlarga ega. Darslarda ifodali o‘qish, yod olish, matnni izohlash, matnning rejasini tuzish, qayta hikoyalash, asarga sarlavha topish, asar qahramonlariga maktublar yozish, adabiy yoki adabiy-tanqidiy maqolalarga taqriz yozish kabi bir-biriga o‘xshamaydigan topshiriqlarni bajarish mumkin. Bunday topshiriqlar, albatta, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini oshirishda samarali bo‘ladi.
Shuni ta’kidlash lozimki, badiiy adabiyotga oshnolik, badiiy asar ustidagi muntazam ish, kitob bilan muloqot inson nutqini eng kuchli darajada rivojlantiradigan omildir. Insonning nutq madaniyati va uning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari orasida bevosita bog‘lanishlar mavjud. Nutq insonning axloqiy qarashlari va e’tiqodlari bilan ham uzviy bog‘liq holda kamol topib boradi.
Nutq o‘stirish tushunchasiga “o‘qituvchi va o‘quvchilarning nutqni egallashga qaratilgan o‘quv faoliyati” deb ta’rif beriladi. Mutaxassislar nutq o‘stirishning bevosita adabiy ta’lim bilan bog‘liq holda uch xil yondashuvga ega ekanligini ko‘rsatishadi. Bular quyidagilar:
1. Psixolingvistik yondashuv ( nutqiy faoliyat nazariyasiga tayanadi).
2. Lingvodidaktik yondashuv ( ona tili hamda xorijiy tillarni o‘rgatish, o‘rganish qonuniyatlari ustida tadqiqot olib boradi).
3. Adabiy-metodik yondashuv (badiiy adabiyot, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, notiqlik san’ati nazariyasining imkoniyatlarini e’tiborga oladi).
Har qanday vaziyatda ham o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini badiiy adabiyot vositasida rivoj toptirish badiiy asar tahlili bilan bog‘liq ravishdagina amalga oshiriladi. Bu esa, avvalo, asarni o‘qish, uni tushunish, asarda ifodalangan insoniy kechinmalar mohiyatini anglab yetish, uni his etish bilan, o‘quvchi shaxsidagi ma’naviy, badiiy-estetik, axloqiy takomil bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.
Shunisi quvonarliki, badiiy asarni o‘qish jarayonida o‘quvchilarda kitob bilan ishlashga oid ko‘nikma va malakalar barqarorlashib boradi.

Og‘zaki va yozma nutq madaniyatini takomillashtirishhning asosiy omillaridan biri shundaki, barcha fan ustozlari o‘quvchilar nutqini doimiy ravishda kuzatib borishlari kerak. Bu jarayonni boshlang‘ich sinfdan boshlash lozim. Tabiiyki, yashab turgan muhiti bolaning nutqiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pchilik oilalarda ota-onalar, bog‘chalarda tarbiyachilar, maktabda o‘qituvchilar bolalar nutqining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadilar va bolalarning madaniy nutq malakalarini oshirishga hissa qo‘shadilar. Achinarlisi shundaki, ayrim oilalarda, bog‘cha va maktablarda bu borada e’tiborsizlikka yo‘l qo‘yadilar. Natijada bola madaniy nutqini shakllantirish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Bu esa bola kamolga yetganida ham nutqida bo‘shliqlar mavjud bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, bolaning og‘zaki nutqini o‘stirishni oiladan boshlamoq lozim. Adabiyot darslarida o‘quvchilarga badiiy asarni ifodali o‘qitish orqali ularning nutqiy kompetensiyalari o‘stirib boriladi. Buning mohiyati shundaki, o‘qituvchi dars davomida o‘quvchilarda badiiy asarni ifodali o‘qish yoki yod olishni vazifa qilib beradi hamda ifodali o‘qilgan asar yuzasidan fikr bildirishga undaydi. Bu esa o‘quvchilarning gaplarning grammatik qurilishiga ahamiyatli bolishlariga, so‘z san’atini egallab olishlariga imkon beradi. Qolaversa, o‘quvchida o‘z fikrini mustaqil ifodalay olish ko‘nikmasining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Albatta, bu topshiriqning samarali bo‘lishi adabiyot o‘qituvchisining mahoratiga bog‘liq. Dars davomida madaniy nutqni rivojlantirish maqsadida so‘z ma’nolari bilan bog‘liq topshiriqlarni bajarish, o‘qilgan parchani qayta hikoyalab berish, voqelikni bayon qilish, insho yozish kabi mashg‘ulotlarni o‘kazib turish ham taqazo etiladi.

O‘quvchilarning nutqiy kompetentlarini o‘stirish uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shunisi ham borki, nutq o‘stirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni doimiy ravishda uyushtirib borilmasa, ta’limning sifatiga putur yetadi, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham nutq o‘stirishni takomillashtirib borish maqsadida boshlang‘ich, o‘rta sinflar va yuqori sinflarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar o‘rtasida bog‘liqlikka erishish lozim, ya’ni bu bosqichlarda tashkil qilingan mashg‘ulotlar bir-birini to‘ldirib borishi kerak. O‘rta sinflarda olib borilgan ishlarni yuqori sinflarda yo‘lga qo‘yiladigan ishlar bilan chambarchas bog‘lagan holda o‘tkazish o‘qituvchining muhim vazifasi sanaladi. Nutqiy kompetentni o‘stirish uzoq muddatli jarayon bo‘libgina qolmay, ayni vaqtda ijodiy jarayon hamdir. Chunonchi, o‘quvchilarda har bir so‘zni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishga qiziqish paydo qilish, so‘zlash, savollarga javob berish, bayon hamda insho yozish, bu borada hosil qilgan malakalarini mustahkamlab, tobora rivojlantirib borish o‘z ustida mustaqil ijodiy ishlay olish qobiliyatini oshirib borishni taqozo etadi.

Ma’lumki, nutqiy kompetentni taraqqiy ettirish og‘zaki va yozma tarzda amalga oshiriladi. Uzoq yillik kuzatishlardan shu ma’lumki, insho yozish jarayoni murakkab bo‘lgani uchun ham uni o‘tkazishga yetarlicha e’tibor qaratiladi, ya’ni o‘quvchilarning insho yozish, yozma fikrlash qobiliyatini yil sayin oshirib borishga e’tibor beriladi. Biroq og‘zaki nutqni rivojlantirishga bu darajada ahamiyat berilmaydi. Nutqning har ikkala turini bir-biriga bu tarzda qarama-qarshi qilib qo‘yish g‘ayritabiiy sanaladi. Kundalik hayotda har ikkalasi ham birdek zarur: masalan, majlisda aytilishi kerak bo‘lgan fikrni izchil bayon qilish yoki axborot, ma’ruza, hisobot yozish qobiliyati egallangan bo‘lishi lozim.

Filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronov shunday e’tirof etadi: “Badiiy asarni u yaratilgan davr voqeligiga bog‘lab qo‘yishlik unga noijodiy yondashishning natijasidir. Holbuki, badiiy kommunikatsiyaning yakunlovchi bosqichi – asarning o‘qilishi va uqilishi ham tom ma’nodagi ijodiy jarayondir. O‘quvchining diqqat e’tibori asar badiiy voqeligining real voqelikka

nechog‘li mosligiga emas, uning zamiridagi ma’noga qaratilishi lozim. O‘quvchi o‘z voqeligidan kechib badiiy asar voqeligida to‘laqonli yashasagina ijod onlaridagi san’atkorga ruhan yaqinlashadi, shundagina o‘sha san’atkor ma’no vositasida anglagan olamu odam mohiyati unga ochilishi mumkin bo‘ladi. Ma’noning “skeleti” bo‘lmish mohiyat o‘zgarmas tabiatga egadirki, uning vositasida o‘quvchi o‘z zamonasini, zamondoshlarini, o‘zini teranroq idrok etadi”[1].

Darhaqiqat, parchada keltirilganidek, o‘quvchi badiiy asarni o‘qiganida o‘z voqeligidan kechib badiiy asar voqeligida to‘laqonli yashar ekan, albatta, asar tili ham uning kechimlariga ta’sir qilmay qolmaydi, asar muallifi o‘quvchining butun borlig‘ini so‘z sehri yordamidagina zabt etadi. Shunday ekan, bu jarayonda, shaksiz, o‘quvchining madaniy nutqi ham kamol topadi, sayqallanadi.

Adabiyot – so‘z san’ati. Shuning uchun ham nutqiy kompetentni takomillashtirish adabiyotning o‘quv fani va san’at namunasi sifatida muhim vazifasi ekanligidan dalolat beradi. O‘quvchilar adabiyot darslarida bog‘lanishli nutq namunalari amaliyoti bilan bevosita tanishib boradilar. Ayni paytda ushbu jarayonda ifoda imkoniyatlarining ta’sirchanligi ham kuzatiladi. Aslida adabiyot o‘qitishdagi asosiy vazifalar ham mana shulardan iborat. Rus metodist olimlari

V.Y. Stoyunin, L. I. Polivanov, V. P.Ostrogorskiy, N. P. Potanina, V. P. Sheremetevskiy, T. F. Kurdyumova, M.V.Cherkezovalar, o‘zbek olimlaridan A.Zunnunov, Q.Ahmedov, M.Mirqosimova, S.Matchonov, R.Niyozmetova va boshqalar bu borada jiddiy ilmiy-metodik tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Shuni ham alohida ta’kidlamoq lozimki, nutq o‘stirish muammolari faqat til va adabiyot o‘qituvchilari zimmasidagi muammo emas. Bu xayrli ishga boshqa fan o‘qituvchilari ham, psixologlar ham, ijtimoiy soha vakillarini ham, shifokorlar ham birdek daxldor sanaladi. Bu bejiz emas. Chunki insonning nutqiy rivoji uning aqliy kamolotiga, ma’naviyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omildir. Mahmud Qoshg‘ariyning mashhur “Devonu lug‘ot at-turk” asarida keltirilgan maqollar sirasida “Ardam bashi – til” (Har qanday san’at va fazilatning boshlanishi tildir) degan maqolning mavjud ekanligi bejiz emas. Bu maqolda buyuk ajdodimiz inson ma’naviyatining rivoj topishida uning ichki dunyosi shakllanishida tilning nechog‘li ahamiyatli ekanligini shu tarzda yorqin ifodalaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E.,Tojiev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1992.
Qo‘ng‘urov R., Begmatov E.,Tojiev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1992.
2. Almamatov T., Yadgarov Q. va Almamatova Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent, 2013.
3. R. Rasulov. Umumiy tilshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007
3. Ziyodova T.U. O‘qituvchi kitobi. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. — T.: 2002.

[1] Quronov D. «Adabiyot nadir» yoki Cho‘lponning mangu savoli. Adabiy-tanqidiy maqolalar.- T.: «Zarqalam», 2006,38-39-betlar